| 3 | Jismoniy shaxsning ish haqidan to'lanadigan majburiy to'lovlar, shundan | | 120 000,00 |
| 4 | Daromad solig'i | 12 | 120 000,0 |
| 8 | Qo'lga olinadigan naqd pul | | 880 000,00 |
| 9 | Korxona tomonidan ijtimoiy soliqlarga to'lovlar, shundan | | 120 000 |
| 10 | Pension fondga ajratma | 12 | 120 000 |
| 11 | Bandlik fondiga ajratma | 0,03 | 3 000 |
| 12 | Kasaba uyushmalari Federatsiyasiga | 0,2 | 2 000 |
| 13 | Korxonaning hisob raqamidan hisoblangan ish haqi va boshqa majburiy to'lovlar jami summasi (2+9)=13 | | 1 120 500,0 |

1-jadval jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, "A" tijorat firmasi xodimga 880 000,0 so'm miqdorida ish haqi berish uchun hisobvarag'idan jami 1 120 500,0 so'm chiqim qilishi zarur bo'lmoqda. Agar "A" tijorat firmasi noqonuniy yo'llar bilan hisobraqamidagi naqdsiz pulni naqdlashtirish hisobiga o'z xodimiga 880 000,0 so'm beradigan bo'lsa, ushbu holatda bevosita naqdlashtirish bilan shug'ullanadigan firmaning hisobvarag'iga 970 000,0 so'm o'tkazishi kifoya bo'ladi.

Keltirilgan shartli misoldan ko'rinib turibdiki, "A" tijorat firmasi qonuniy yo'l bilan o'z xodimiga 880 000,0 so'm ish haqi berganda barcha to'lovlar bilan umumiy xarajat miqdori 1 120 500,0 so'mni tashkil etdi, agar noqonuniy yo'l bilan naqdlashtirish orqali ushbu mablag'ni berganda esa 970 000,0 so'm yoki 150 500,0 so'm miqdorida noqonuniy yo'l bilan tejab qolish imkoniyatiga ega bo'ldi.

Shu bilan birga, "A" tijorat firmasi bankdan naqd pul olish uchun bankka kamida ikki marta borishini, "tegishli muomala"ni amalga oshirishini, yo'qotadigan vaqtini hisobga oladigan bo'lsak, uning uchun ayrim xo'jalik yurituvchi subyektlar uchun iqtisodiy rag'batlar mavjudligini kuzatish mumkin.

Biz ushbu misolda ko'rib chiqqan holat ish haqini hisoblash va tarqatish bilan bog'liq operatsiyalar hisoblanadi, lekin ushbu va shunga o'xshash boshqa operatsiyalar katta hajmda tovarlarni sotish va sotib olish hamda xizmatlarni ko'rsatish bilan bog'liq operatsiyalarda ham amalga oshirilayotganligi amaliyotdan bizga ma'lum. Bularning barchasi soliq tushumlari, pul aylanmasi va moliyaviy barqarorlik ko'rsatkichlariga ma'lum darajada ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Xalqaro tajriba va tadqiqotlar natijasidan ma'lumki, bankdan tashqari aylanmalarni to'lig'icha bartaraf etishning imkoniyati mavjud emas. Ya'ni bankdan tashqari aylanmalar iqtisodiyotda mavjud bo'lgan inflyatsiya, ishsizlik kabi ma'lum darajada saqlanib turadi. Soha mutaxassislari va mas'ul shaxslarning asosiy vazifasi bankdan tashqari pul aylanmalarining umumqabul qilingan me'yorini (asosan 5–10 foiz atrofida) ushlab

7 Muallifning hisob-kitobi asosida tayyorlandi.

turishdan iboratdir.

O‘zbekiston Respublikasida bankdan tashqari pul aylanmalarini qisqartirish yo‘llarini takomillashtirish maqsadida tadqiqotlar davomida bir qator amaliy tadbirlar ishlab chiqildi. Bizning fikrimizcha, quyida keltirilgan tahlillar natijasida bankdan tashqari pul aylanmalarini qisqartirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Jumladan:

1. Inflyatsiya darajasini, qayta moliyalash stavkasi va majburiy zaxira stavkalarini pasaytirish hamda tijorat banklari kreditlarining nominal foiz stavkalari barqarorligini ta‘minlash yo‘li bilan monetizatsiya koeffitsienti darajasini bosqichma-bosqich oshirib borish maqsadga muvofiqdir. Shu o‘rinda bir ma‘lumot keltirmoqchimiz.

2-jadval
Ayrim davlatlarda monetizatsiya koeffitsiyenti darajasi[8], foizda

| Davlatlar | Yillar | | | | | | | | | | | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | 2005 | 2006 | 2007 | 2008 | 2009 | 2010 | 2011 | 2012 | 2013 | 2014 | 2015 | 2016 | 2017 | 2018 | 2019 | 2020 | 2021 | 2025 |
| AQSh | 51,45 | 51,39 | 51,85 | 55,73 | 59,01 | 58,86 | 62,37 | 64,79 | 65,93 | 67,01 | 68,26 | 71,14 | 71,59 | 70,39 | 72,11 | 92,12 | 94,16 | 73,1 |
| Buyuk Britaniya | 91,63 | 98,58 | 104,29 | 117,15 | 120,4 | 133,57 | 125,55 | 122,6 | 120,39 | 114,8 | 113,04 | 116,93 | 115,1 | 114,62 | 111,31 | 124,19 | 139,2 | 127,3 |
| Yaponiya | 133,14 | 133,38 | 135,1 | 140,53 | 154,45 | 154,75 | 162,21 | 165,38 | 169,6 | 172,15 | 171,11 | 175,68 | 179,1 | 182,32 | 186,3 | 211,09 | 217,43 | 256,4 |
| Braziliya | 26,75 | 27,29 | 28,66 | 34,95 | 35,58 | 35,72 | 37,7 | 37,24 | 37,24 | 37,84 | 38,93 | 39,02 | 39,2 | 40,71 | 41,95 | 53,54 | 49,51 | 107,9 |
| Hindiston | 23,83 | 24,7 | 24,29 | 23,72 | 25,24 | 24,62 | 22,39 | 20,99 | 20,35 | 19,74 | 20,06 | 15,39 | 19,42 | 20,22 | 20,35 | 22,73 | 25,94 | 79,8 |
| Xitoy | 162,06 | 160,18 | 154,7 | 155,41 | 179,51 | 178,08 | 175,41 | 184,21 | 189,48 | 193,79 | 206,46 | 214,06 | 209,66 | 207,25 | 204,17 | 217,82 | 212,56 | 243,5 |
| Rossiya | 27,91 | 33,33 | 38,71 | 31,44 | 39,34 | 43,21 | 40,26 | 39,89 | 42,69 | 40 | 42,34 | 44,87 | 46,21 | 45,36 | 47,13 | 54,62 | 50,57 | 64,1 |
| O‘zbekiston | 14,3 | 14,9 | 17,3 | 18,8 | 20 | 21 | 21,4 | 22 | 22,6 | 23,2 | 23,8 | 24,4 | 25 | 25,6 | 26,2 | 26,8 | 27,4 | 36,6 |

2-jadvalda keltirilgan ma‘lumotlardan ko‘rinadiki, respublikamizda taraqqiy etgan davlatlar monetizatsiya koeffitsientidan sezilarli darajada past. Xalqaro valyuta fondi ekspertlari tavsiyasiga ko‘ra, monetizatsiya koeffitsienti kamida 30-33 foiz bo‘lishi lozim.

Shuni ta‘kidlash lozimki, monetizatsiyaning standart qiymatlari bo‘yicha konsensus mavjud emas, ammo mamlakat iqtisodiyotida KME qiymati 50% dan ortiq bo‘lsa, bu to‘lovlarni amalga oshirish uchun yetarli mablag‘ mavjudligining ko‘rsatadi.

Mamlakatda monetizatsiya koeffitsienti 50% dan kam bo‘lsa, pul va bank tizimi xizmat ko‘rsatmaydigan iqtisodiyotning katta qismini barterizatsiya qilishga olib kelishi mumkin.

Turli mamlakatlardagi haqiqiy monetizatsiya stavkalari bo‘yicha mavjud ma‘lumotlarni tahlil qilib, biz rivojlangan mamlakatlar uchun 150% darajasida umumiy qabul qilingan LME benchmarklari umuman bajarilmagan degan xulosaga kelishimiz mumkin.

Jadvalda ko‘rsatilgan beshta rivojlangan davlat orasida iqtisodiy monetizatsiya koeffitsientining eng yuqori qiymati Yaponiyada kuzatilgan, AQSh 5-o‘rinni egallaganligini ko‘rishimiz mumkin.

Rivojlanayotgan davlatlar o‘rtasida yetakchilikni Xitoy egallagan bo‘lib, uning iqtisodiy monetizatsiyasi 2025-yilda 243,5 foizni tashkil etgan. Bu Yaponiyadan tashqari yuqoridagi deyarli barcha rivojlangan mamlakatlar ko‘rsatkichlaridan yuqori demakdir.

Xitoyda monetizatsiyaning bunday darajasi iqtisodiyotning moliyaviy aktivlari likvidligining yuqori darajasi bilan ta‘minlanganligi bilan izohlanadi.

Mamlakatda pul aylanmasi barqarorligini ta‘minlash va monetizatsiya darajasini oshirish uchun asosan inflyatsiya darajasini, Markaziy bankning qayta moliyalash stavkasini va majburiy zaxira stavkalarini pasaytirish lozim bo‘ladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 12-maydagi PF-5992-sonli “2020–2025-yillarga mo‘ljallangan O‘zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoniga ko‘ra, 2020-2025-yillarda iqtisodiyotning real sektori korxonalarini modernizatsiyalash, texnik va texnologik

8 https://prognostica.info/news/koefficzient-monetizaczii-ekonomiki-dinamika-v-rossii-i-stranah/, https://www.voronoiapp.com/money/-Broad-Money-to-GDP-Ratios-Vary-Widely-Across-Major-Economies-Q3-2025-7072

qayta qurollantirish maqsadida tijorat banklari tomonidan beriladigan uzoq muddatli investitsion kreditlar hajmi 2,8-martaga oshirilishi belgilangan.

2. Pul-kredit instrumentlaridan foydalanish amaliyotini yanada takomillashtirish va pul bozorini rivojlantirish orqali muomaladagi pul massasi oʻsish surʻatlarining tovar va xizmatlar hajmining oʻsishiga nisbatan barqarorligini taʻminlash lozim.

Pul-kredit instrumentlaridan foydalanish amaliyotini takomillashtirish orqali muomaladagi pul massasi oʻsish surʻatlarining tovar va xizmatlar hajmining oʻsishiga nisbatan barqarorligini taʻminlash uchun, fikrimizcha, quyidagi faoliyatlarni joriy qilish kerak:

– Markaziy bankning ochiq bozor operatsiyalari obʻektlari sonini xalqaro reyting agentliklari boʻlgan – Standart and Poor's va Moody's agentliklarining yuqori reyting ballariga ega boʻlgan emitentlarning obligatsiyalari hisobiga oshirish lozim;

– markazlashgan kreditlar hajmini oshirish kerak;

– Markaziy bankning majburiy zaxira stavkalarini pasaytirish shart;

– Markaziy bankning valyuta siyosati doirasidagi operatsiyalar hajmini oshirish lozim.

– Markaziy bankning depozit operatsiyalari hajmini oshirish.

Markaziy bank tomonidan beriladigan markazlashgan kreditlar miqdorining kam boʻlishi uning ssuda kapitallari bozoridagi ishtirokining faol emasligidan dalolat beradi.

Pul bozorini rivojlantirish Oʻzbekiston pul tizimini yanada mustahkamlashga xizmat qiladigan muhim amaliy yoʻnalishlardan biri hisoblanadi. Soʻnggi yillarda ushbu yoʻnalishda muayyan natijalarga erishilgan boʻlsa-da, pul bozori infratuzilmasini yanada takomillashtirish va uning samaradorligini oshirish uchun qoʻshimcha imkoniyatlar mavjud. Oʻzbekiston Banklari assotsiatsiyasi tomonidan e'lon qilinayotgan pul bozori stavkalari moliya bozoridagi jarayonlar haqida muhim axborot manbai boʻlib xizmat qilmoqda. Shu bilan birga, ushbu koʻrsatkichlarning bozor kon'yunkturasini yanada toʻliq aks ettirishi va banklararo resurslar harakati bilan uygʻunligini kuchaytirish pul bozori rivojlanishining istiqbolli yoʻnalishlaridan biri hisoblanadi. Mazkur yondashuv pul bozori mexanizmlarining shaffofligini oshirishga, banklararo operatsiyalar faolligini ragʻbatlantirishga hamda moliyaviy resurslar taqsimotining samaradorligini yanada kuchaytirishga xizmat qiladi.

Shu sababli, pul bozorini rivojlantirishning dastlabki va ustuvor yoʻnalishi kredit resurslarining real savdosini tashkil qilish, deb hisoblaymiz.

Pul bozorini rivojlantirishning keyingi yoʻnalishi, bizning qarashimizda, Markaziy bankning pul bozorida teng huquqli ishtirokchi sifatida oʻz resurslari bilan ishtirok qilishi va shuning asosida pul bozori stavkalariga real taʻsir etishi hisoblanadi.

3. Milliy valyutaning qadrsizlanish surʻatini pasaytirish maqsadida Markaziy bankning svop operatsiyalari orqali ichki valyuta bozorida xorijiy valyutalarga boʻlgan talabni qisqartirish usulidan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Respublikamiz iqtisodiyoti rivojlanishining zamonaviy bosqichida yangi texnika va texnologiyalarni iqtisodiyotning real sektoriga jalb etilayotganligi xorijiy valyutalarga boʻlgan talabning oshishiga olib kelmoqda. Bunday sharoitda Markaziy bankning valyutaviy svop operatsiyalaridan foydalanish koʻlamini kengaytirish ichki valyuta bozorida xorijiy valyutalarga boʻlgan talabni sezilarli darajada qisqartirish imkonini beradi, deb hisoblaymiz.

Fikrimizcha, valyutaviy svop operatsiyalari Markaziy bank tomonidan quyidagi yoʻnalishlarda amalga oshirilishi lozim:

– qisqa muddatli davriy oraliqlarda xorijiy valyutalarga boʻlgan talabni kamaytirish maqsadida Markaziy bankning valyuta mablagʻlarini spot sharti boʻyicha sotish va ularni forvard sharti boʻyicha sotib olish;

– tijorat banklarining "Nostro" vakillik hisobraqamlaridagi pul mablagʻlarini kamaytirish maqsadida ularga AQSh dollarini Markaziy bank tomonidan spot sharti boʻyicha sotish va dollarni forvard sharti boʻyicha sotib olish;

– xorijiy Markaziy banklardan AQSh dollarini forvard sharti boʻyicha sotib olish va ularni respublikaning ichki valyuta bozorida spot sharti boʻyicha sotish.

Oʻzbekiston Respublikasi Markaziy bankining Adliya vazirligida 2008-yil 24-iyulda 1839-son bilan roʻyxatga olingan "Oʻzbekiston Respublikasi banklari tomonidan valyutaviy svop operatsiyalarini amalga oshirish tartibi toʻgʻrisida"gi Nizomiga muvofiq, valyutaviy svop operatsiyasi: Markaziy bank va vakolatli banklar oʻrtasida, vakolatli banklar oʻrtasida oʻzaro, svop bitimi joriy xalqaro operatsiyalar bilan bogʻliq boʻlgan taqdirda, bank mijozlari va vakolatli banklar bilan amalga oshirilishi mumkin.

4. Naqd pul muomalasini takomillashtirish maqsadida quyidagi tadbirlarni amalga oshirish taklif etiladi:

– mamlakatimiz toʻlov amaliyotiga "on-line" rejimida ishlaydigan plastik kartochkalarni joriy etish;

– pullik cheklar muomalasini joriy etish va ular orqali amalga oshiriladigan toʻlovlarni tijorat banklari kreditlari hisobidan toʻlanishini yoʻlga qoʻyish;

– pullik chek emitentining joriy hisobraqamida pul mablagʻlari mavjud boʻlgan taqdirda, naqd pullarda oʻz

vaqtida to'lanishini ta'minlash yo'llari taklif qilindi.

5. O'zbekiston moliya bozorida islom moliyasini joriy etish, bankdan tashqari pul aylanmasi hajmini qisqartirish uchun juda katta va tabiiy iqtisodiy imkoniyatlarni taqdim etadi.

BMTTD so'rovnomalari isbotlaganidek, aholining 68 foizi va biznes vakillarining 60 foizi diniy-ma'naviy qarashlari (ribo/foiz taqiqi) sababli an'anaviy banklardan foydalanmaydi. Moliya bozorida islom moliyasi prinsiplariga mos bo'lgan *mudoraba* (foizsiz foydani taqsimlash) yoki *vadiya* (xavfsiz saqlash) omonatlarining joriy etilishi, aholining diniy e'tiqodi tufayli bankdan tashqarida saqlayotgan milliardlab dollarlik passiv jamg'armalarini rasmiy bank aylanmasiga olib kirish uchun kuchli motivatsiya hisoblanadi. Islom moliyasining eng ustuvor prinsipi pul pulni tug'dirmasligi va har qanday moliyalashtirish albatta real tovar yoki aktivga bog'lanishi shartligidir. Masalan:

– *Murobaha* (nasiyaga savdo) instrumentida bank mijozga naqd pul bermaydi, balki mijoz uchun zarur bo'lgan asbob-uskuna yoki xomashyoni sotuvchidan naqd pulsiz (o'tkazma) yo'li bilan sotib olib, mijozga ustama haq evaziga bo'lib-bo'lib to'lashga sotadi. Bu tizim naqd pul oqimining bankdan tashqariga chiqib ketish zanjirini ildizi bilan uzib qo'yadi;

– *Takoful* (o'zaro sug'urta) tizimida ishtirokchilar an'anaviy sug'urtadagidek pulni kompaniyaga sotib yubormaydilar, balki xavflarni o'zaro qoplash uchun o'zaro yordam (*taavun*) fondini tuzadilar. Ushbu fonddagi bo'sh mablag'lar faqatgina islom moliyasiga mos bo'lgan va bank ichida aylanadigan halol investitsiyalarga yo'naltiriladi. Yil yakunida to'lanmay qolgan ortiqcha zaxira mablag'lari yana ishtirokchilarning o'zlariga qaytariladi. Bu tadbirkorlarda mablag'larni naqdlashtirishdan ko'ra, bank ichida (takoful tizimida) saqlashning iqtisodiy va ma'naviy manfaatdorligini oshiradi;

– Davlat yoki yirik korporatsiyalar tomonidan *sukuk* (islom obligatsiyalari)ning chiqarilishi muomaladagi ortiqcha naqd pul mablag'larini uzoq muddatga bog'lab qo'yish (absorbsiya qilish) imkonini beradi. Oddiy obligatsiyalardan farqli o'laroq, sukuk egasiga foiz bermaydi, balki aniq bir real aktivning (bino, yo'l, zavod) ijara daromadidan ulush beradi. Bu bozordagi sun'iy naqd pul bosimini pasaytiradi va monetizatsiya koeffitsiyentini sifatli ravishda oshiradi;

– Islom moliyasi tizimi sheriklik va shaffoflikka ya'ni, mushoraka, mudoraba amaliyotlariga asoslangani sababli, bank va tadbirkor loyihadagi risk va foydani birgalikda baham ko'radilar. Bank tadbirkorning biznesiga sherik sifatida kirganidan so'ng, loyihaning buxgalteriyasi va pul aylanmalari to'liq legal bo'lishi shart qilib qo'yiladi. Bu esa, tadbirkorni soliqdan qochish uchun "naqdlashtirish" sxemalaridan foydalanish rag'batidan mahrum qiladi, chunki rasmiy ishlash unga bankdan katta sheriklik kapitalini olish imkonini beradi, bu orqali yashirin (xufyona) iqtisodiyotni qisqartirish imkoni tug'iladi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Olib borilgan tadqiqotlar va xorij davlatlarining empirik tajribalari qiyosiy tahlili asosida quyidagi ilmiy-nazariy va amaliy xulosalar shakllantirildi:

O'zbekistonda iqtisodiy monetizatsiya koeffitsiyenti rivojlangan davlatlar ko'rsatkichidan hamda XVF ekspertlari tavsiya etgan minimal (30-33%) me'yordan past hisoblanadi. Monetizatsiya koeffitsiyenti (Broad Money-to-GDP Ratio) ko'rsatkichining 50% dan kam bo'lishi milliy iqtisodiyotda naqd pulsiz hisob-kitoblar infratuzilmasini yanada rivojlantirish imkoniyatlari mavjudligini ko'rsatadi.

Mamlakatda pul aylanmasi barqarorligini ta'minlash bevosita makroiqtisodiy omillarga bog'liq. Inflyatsiya darajasini pasaytirish orqali Markaziy bankning qayta moliyalash va majburiy zaxira stavkalarini liberallashtirish tijorat banklarining kreditlash foiz stavkalarini arzonlashtirish hamda pul massasini tovar massasiga muvofiqlashtirishning bosh richagidir.

O'zbekistonda pul bozori infratuzilmasini yanada rivojlantirish hamda banklararo resurslar harakatini aks ettiruvchi mexanizmlarni takomillashtirish imkoniyatlari mavjud. Asoslab berilgan "Murobaha", "Mushoraka" va "Mudoraba" kabi sheriklikka asoslangan muqobil instrumentlarning yo'qligi pul bozori rivojlanishining qo'shimcha imkoniyatlarini yuzaga keltiradi.

Milliy moliya bozorida Islom moliyasi prinsiplarini joriy etish bankdan tashqari naqd pul aylanmasini qisqartirishda iqtisodiy va ijtimoiy samaradorlikni oshirishga xizmat qiluvchi qo'shimcha mexanizmlardan biri bo'lishi mumkin. Mazkur tizim diniy-ma'naviy qarashlar, ribo ta'qiqi sababli banklardan qochayotgan aholi va biznes vakillarining (aholining 68%, biznesning 60%) milliardlab dollarlik passiv kapitalni rasmiy moliyaviy aylanmaga jalb etishning samarali mexanizmlaridan biri bo'lishi mumkin.

Islom moliyasi instrumentlarining pul bilan emas, balki majburiy tartibda real aktivlar bilan ishlash tamoyili, *murobaha* nasiya savdosi va uzoq muddatli sukuk obligatsiyalari naqd pullarning bank tizimidan tashqariga chiqib ketish zanjirini uzadi. Loyihalardagi risk va foydani birgalikda baham ko'rish, mushoraka, mudoraba buxgalteriya hisobini to'liq legallashtiradi va moliyaviy operatsiyalarning shaffofligini oshirish va rasmiy iqtisodiy

faoliyatni rag'batlantirishga xizmat qiladi.

Maqolaning umumiy mazmuni va tadqiqot natijalaridan kelib chiqqan holda, O'zbekiston pul va bank tizimini modernizatsiya qilish bo'yicha quyidagi konstruktiv takliflar ilgari suriladi:

1. Markaziy bankning qayta moliyalashtirish va zaxira siyosatini takomillashtirish: birinchidan majburiy zaxiralarni pasaytirish, ya'ni, Markaziy bank tomonidan o'rnatilgan yuqori majburiy zaxira stavkalarini, ayniqsa xorijiy valyutadagi 14 foizlik normani pasaytirish orqali tijorat banklarining ichki resurs salohiyatini oshirish lozim, ikkinchidan likvidlilikni oshirish ya'ni, tijorat banklariga beriladigan markazlashgan kreditlar hajmini oshirish, ularni kredit auksionlaridan tashqarida sotishni taqiqlash hamda banklarning ehtimoliy yo'qotishlarga qarshi majburiy proviziyalari miqdorini pasaytirish orqali PF-5992-sonli Farmonda belgilangan uzoq muddatli investitsion kreditlar hajmini oshirish maqsadga muvofiq.

2. Pul bozori vositalarini rivojlantirish va diversifikatsiya qilish, jumladan ochiq bozor operatsiyalari obyektlarini kengaytirish ya'ni, Markaziy bankning ochiq bozordagi operatsiyalari obyektlari tarkibini xalqaro reyting agentliklari, *Standard & Poor's*, *Moody's* ning yuqori reyting ballariga ega bo'lgan emitentlarning korporativ va investitsion obligatsiyalari hisobiga ko'paytirish zarur, shu bilan birga real pul bozorini yaratish ya'ni, markaziy bank pul bozorida teng huquqli ishtirokchi sifatida o'z resurslari bilan faol qatnashishi va banklar o'rtasidagi real shartnomaviy foiz stavkalarining shakllanishini ta'minlashi lozim.

3. Valyutaviy svop operatsiyalari konfiguratsiyasini kengaytirish xususan, ichki valyuta bozorini barqarorlashtirish ya'ni, milliy valyutaning devalvatsiya sur'atini pasaytirish va real sektorning xorijiy valyutaga bo'lgan talabini qondirish uchun Markaziy bank tomonidan qisqa muddatli valyutaviy svop operatsiyalari ko'lamini oshirish lozim (mablag'larni “spot” sharti bilan sotish va ularni “forvard” sharti bilan qayta sotib olish) o'z navbatida, svop stavkalarini xalqaro moslashtirish ya'ni, svop bitimlarida so'm bo'yicha foiz stavkalarini Markaziy bankning qayta moliyalash stavkasi darajasida, xorijiy valyutalar (USD, EUR, GBP, JPY) uchun esa AQSH FEZ (*Federal funds target rate*), YEMB va Angliya bankining rasmiy stavkalari bilan muvofiqlashtirish maqsadga muvofiq.

4. Naqd pulsiz hisob-kitoblarni raqamlashtirish va innovatsion instrumentlarni tatbiq etish, jumladan; “onlayn” cheklar muomalasini yo'lga qo'yish ya'ni, milliy to'lov amaliyotiga “onlayn” rejimda ishlaydigan pullik cheklar muomalasini kiritish va ular orqali amalga oshiriladigan to'lovlarni banklarning overdraft kreditlari hamda kredit liniyalari hisobidan qoplash tizimini, jismoniy va yuridik shaxslar uchun limitlar belgilagan holda yaratish zarur va shu bilan birga To'lov tezligini kafolatlash ya'ni, chek emitentlarining hisobvarag'ida mablag' bo'lgan taqdirda, ularning naqd pullarda banklar tomonidan o'z vaqtida to'lanishi ustidan Markaziy bankning doimiy qat'iy nazoratini o'rnatish shart, chunki to'lovning kechiktirilishi naqd pulsiz instrumentga bo'lgan ishonchni butunlay yo'qqa chiqaradi.

5. Islom moliyasi instrumentlarini milliy tizimga integratsiya qilish xususan: birinchidan, “Islom darchalari”ni kengaytirish ya'ni, tijorat banklarida va mikromoliya tashkilotlarida islom moliyasi prinsiplariga mos bo'lgan *mudoraba* va *vadiya* omonatlarini faollashtirish orqali aholining bankdan tashqaridagi passiv jamg'armalarini rasmiy aylanmaga jalb etish lozim, ikkinchidan Loyihalarni naqd pulsiz moliyalashtirish ya'ni, kreditlash amaliyotida pulning o'zini naqd berish tizimidan voz kechib, mablag'larni to'g'ridan-to'g'ri ta'minotchiga o'tkazishga asoslangan *murobaha* nasiya savdo va *ijara* instrumentlarini keng tatbiq etish, shuningdek, ortiqcha naqd pul massasini uzoq muddatga bog'lash uchun davlat va korporativ *sukuk* (islom obligatsiyalari) bozorini shakllantirish zarur.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati


1. O'zbekiston Respublikasining qonuni. O'zbekiston Respublikasining Markaziy banki to'g'risida//Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 12.11.2019-y., 03/19/582/4014-son. https://lex.uz/docs/4590452
2. O'zbekiston Respublikasining qonuni. Banklar va bank faoliyati to'g'risida//Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 06.11.2019-y., 03/19/580/3994-son; 07.01.2020y., 03/20/600/0023-son; Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son, 12.10.2021-y., 03/21/721/0952-son. https://lex.uz/docs/4581969
3. O'zbekiston Respublikasining Qonuni Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida// www.lex.uz.
4. O'zbekiston Respublikasining Qonuni. Banklar va bank faoliyati to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi qonuniga o'zgartishlar kiritish haqida//Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 20.04.2023-y., 03/23/831/0219-son.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli “2022-2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida”gi//www.lex.uz.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 12-maydagi PF-5992-sonli “2020-2025-yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to'g'risida”gi farmoni//QHMMB:06/205992/0581-son. 13.05.2020-y. https://lex.uz/docs/-4811025
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 18-noyabrdagi PF-5877 – sonli “Inflyatsion targetlash rejimiga bosqichma-bosqich o'tish orqali pul-kredit siyosatini takomillashtirish to'g'risida”gi farmoni. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 19.11.2019-y., 06/19/5877/4036-son.

8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 12-sentyabrdagi PQ-3270-sonli «Respublika bank tizimini yanada rivojlantirish va barqarorligini oshirishga doir chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi qarori// QHMMB:07/17/3270/0004-son.25.09.2017-y.
9. Деньги, кредит, банки. Под ред. Проф. О.И. Лаврушина. – М.: ЗАО «КноРус», 2009. – С. 95-101.
10. Уэрта де Сото Хесус. Деньги, банковский кредит и экономические циклы. Пер. с англ. – Челябинск: Социум, 2008. – С. 280-282.
11. Белоглазова Г.Н. Деньги, кредит, банки. Учебник. – М.: Д34 Высшее образование, 2008. – С. 113-128.
12. Рахимова Х.У. Организация и развитие платежной системы Республики Узбекистан. Дисс. на соиск. уч. ст. к.э.н. – Ташкент, 2006. – С.19-20.
13. Жумаев Н.Х. Ўзбекистонда валюта муносабатларини тартибга солиш методологиясини такомиллаштириш. И.ф.д. илм. дар. ол. учун ёз. дисс. автореф. – Тошкент: БМА, 2008. – 32 б.
14. Gadoyev S.J., Xanaliyev B.B., Tijorat banklarining daromad bazasini mustahkamlash. Monografiya. – T.: “Publishing high future” OK nashriyoti, 2025. – 120 b.
15. Gadoyev S.J. Pul aylanmasini takomillashtirish: nazariyasi va amaliyoti. monografiya. – T.: “Publishing high future” OK nashriyoti, 2024. – 94 b.
16. Gadoyev S.J. Kredit mexanizmini takomillashtirish: nazariyasi va amaliyoti. // Monografiya. – T.: TerDU nashr-matbaa markazi, 2023. – 175 b.
17. Gadoyev S.J. Pul aylanmasini tashkil qilishning xorij tajribasi va O‘zbekistonda foydalanishning imkoniyatlari. // Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot. – Toshkent, 2025. –№. 11. 987-992 – b.
18. 18. Gadoyev S.J. Pul aylanmasi mexanizmini amaliy asoslarini takomillashtirish. // Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot. – Toshkent, 2024. –№. 11. 1338-1344 – b.
19. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining faoliyati to‘g‘risida hisobot //www.cbu.uz (O‘zbekiston Respublikasining Markaziy banki)
20. https://prognostica.info/news/koefficzient-monetizaczii-ekonomiki-dinamika-v-rossii-i-stranah
21. https://www.voronoiapp.com/money/-Broad-Money-to-GDP-Ratios-Vary-Widely-Across-Major-Economies-Q3-2025-7072

# muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Zokir Alibekov

**Sahifalovchi va dizayner:** Abdurahmon Qurbonov

**2026. № 6**



© Materiallar koʻchirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida koʻrsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.



"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S–5669245 reyestr raqami tartibi boʻyicha roʻyxatdan oʻtkazilgan.
**Litsenziya raqami: №095310**.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**

+998 93 718 40 07 https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal t.me/yait_2100